



IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARINING TA'SIRINI STATISTIK TAHLILI

Ro'ziyev Alisher Ibroimovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0009-0637-1025

alisherruziev1986@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohasining tutgan o'rni, uning holati va rivojlanishi statistik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Shuningdek, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish sharoitida xizmatlar sohasida yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar bayon qilingan. Xizmat sohasini rivojlantirish borasida takliflar bildirilgan va xulosalar qilingan.

Kalit so'zlar: xizmatlar sohasi, xizmat turlari, o'sish sur'ati, YaIM, YaHM, hududlar, SWOT tahlil, kichik tadbirkorlik, qo'shilgan qiymat, innovatsiya, tarkibiy siljishlar.

СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ СФЕРЫ УСЛУГ НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ

Рузиев Алишер Иброимович

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье анализируется роль сферы услуг в экономике Узбекистана, ее состояние и развитие со статистической точки зрения. Также описаны структурные изменения, происходящие в сфере услуг в условиях модернизации и диверсификации экономики. Сделаны предложения и выводы по развитию сферы услуг.

Ключевые слова: сфера услуг, виды услуг, темпы роста, ВВП, ВРП, регионы, SWOT-анализ, малый бизнес, добавленная стоимость, инновации, структурные сдвиги.

STATISTICAL ANALYSIS OF THE INFLUENCE OF SERVICE SECTORS ON ECONOMIC DEVELOPMENT

Ruziev Alisher Ibroimovich

Tashkent State University of Economics

Abstract. The article analyzes the role of the service sector in the economy of Uzbekistan, its status and development from a statistical point of view. Also, the structural changes taking place in the service sector in the context of modernization and diversification of the economy are described. Proposals and conclusions were made regarding the development of the service sector.

Key words: service sector, types of services, growth rate, GDP, GRP, regions, SWOT analysis, small business, added value, innovation, structural shifts.

Kirish.

Mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki, hozirgi davr iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarning sodir bo'lishi bu sohani rivojlantirish orqali aholini ish bilan band qilish darajasini kengaytirishga imkoniyat yaratadi.

Rivojlangan davlatlarda bu sektorning iqtisodiyotda band bo'lganlardagi hissasi 75-80 foizni, yalpi ichki mahsulot (YaIM)dagi ulushi esa 60-70 foizni tashkil etmoqda⁸⁸. Respublikamizda bu ko'rsatkichlar mos ravishda 2022 yilda 52,2 va 38,3 foizga teng bo'lganligi hali bu sohada foydalanilmagan imkoniyatlar mavjudligidan dalolat beradi⁸⁹.

Zamonaviy iqtisodiyotda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirmasdan turib, respublikamiz iqtisodiy taraqqiyotini tasavvur qilish qiyin. Bu borada, mamlakatimizda xizmatlar sohasining tezkor o'sish sur'atlarini ta'minlash, mazkur yo'nalishda tadbirkorlikni yanada qo'llab-quvatlash va aholi uchun yangi ish o'rinlarini yaratish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 11 maydagi PQ-5113-son "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi qarorida (Qaror, 2021) hamda 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi (Farmon, 2022) va 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi (Farmon, 2023) Farmonlarida xizmatlar sohasining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ulushini ko'paytirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solish, sifatli xizmatlar turlarini kengaytirish va hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish orqali xizmat ko'rsatish hajmini 2030 yilgacha 3 baravarga oshirish, o'rta va yirik shaharlar hamda aholisi 300 mingdan ko'p bo'lgan tumanlarda zamonaviy bozor xizmatlarini rivojlantirish kabi vazifalarni hal qilish alohida ta'kidlangan.

Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Adabiyotlar sharhi.

Xizmatlar iqtisodiy faoliyat turi sifatida ko'p davrlardan beri mavjud. Birinchi bo'lib, "xizmat" tushunchasini fanga klassik iqtisodiy maktab namoyondasi, fransuz iqtisodchisi Jan Batist Sey (2000) kiritgan. U xizmatlarni faqat inson tomonidan emas, balki jism va tabiat kuchi tomonidan ham ko'rsatiladi, deb hisoblagan.

Klassik iqtisod maktabi asoschisi Adam Smit o'z tadqiqotlarida xizmatlar sohasini alohida tadqiq qilib, uni mehnat sifatida qaragan va ishlab chiqarilish jarayonining o'zida iste'mol bo'lishi, unumli va unumsiz mehnat (xizmat)larga bo'lishini aytib o'tgan. Shuningdek Smit (2016) mehnat (xizmat) qiymat yaratmasligini, qiymat faqat moddiy sohada yaratilishini e'tirof etgan.

Neoklassik maktab vakili Alfred Marshall xizmatlar to'g'risida ancha dadil mantiqan asoslangan fikrlarni maydonga tashlagan va xizmat ko'rsatish sohasining nazariy asoslarini shakllantirishda o'zining munosib hissasini qo'shgan. U xizmatlarni mehnatning nomoddiy, sezgi organlari vositasida ilg'ab bo'lmaydigan natijalari sifatida talqin qilgan. Aynan, Marshall (1993) barcha ne'matlarni moddiy va nomoddiy ne'matlarga bo'lar ekan, ularning barchasi mamlakatdagi ijtimoiy boylikni shakllantirishda birday muhim ekanligini isbotlashga alohida e'tibor qaratgan. U birinchi bo'lib, insonning hayot faoliyatida ehtiyojlarni qondirishida moddiy noz-ne'matning o'ta muhim va zarur ekanligini e'tirof etish bilan bir qatorda, ko'z bilan ilg'ab bo'lmaydigan turli nomoddiy noz-ne'matlar va xizmatlarning ham katta ahamiyati borligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

⁸⁸ <https://data.worldbank.org/indicator/NV.SRV.TOTL.ZS>, <http://www.worldbank.org/eca/russian/data/>

⁸⁹ O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi Ctatistika agentligi ma'lumotlari.

Postindustrial jamiyatning rivojlanishi “xizmat” kategoriyasini ham boyitadi. Endilikda, qiymat moddiy boylikda emas, jonli mehnatda, ya’ni xizmat ko’rsatishda yaratilishi haqidagi nazariyalar ilgari surildi. Bu nazariya tarafdorlari Keynschilar maktabi asoschisi Jon Meynard Keyns (2012) bo’lib, u inson omilisiz har qanday moddiy boylik qotib qolishi va qiymat yaratilmasligini ta’kidlaydi.

Iqtisodchi olim Muxammedov (2016) “xizmat” tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi: “moddiy ko’rinishga ega bo’lmagan, inson mehnati bilan yaratilgan barcha ne’matlar, ular oldi-sotdi ob’ektiga aylanishi yoki aylanmasligidan qat’iy nazar, bitta ibora bilan, ya’ni “xizmat” iborasi bilan nomlanadi. Uning tarkibiga esa oldi-sotdi vositasida bozor orqali iste’molchiga borib yetadigan xizmat ham, umuman bozorga dahldor bo’lmagan qismi ham kiradi.

Yana bir iqtisodchi olim Ochilov (2010) “xizmat” tushunchasiga “inson, mehnat jamoasi, hudud, davlat va jamiyatning ma’lum bir ehtiyojini qondirishga qaratilgan kishilarning naf keltiradigan ongli ko’rsatilishi mumkin bo’lgan faoliyati” deb, “xizmat ko’rsatish”ga esa “inson, mehnat jamoasi, hudud, davlat va jamiyatning ma’lum bir ehtiyojini qondirishga qaratilgan kishilarning naf keltiradigan ongli faoliyati amalga oshirilgan qismi” deya ta’rif keltiradi. Ya’ni “xizmat ko’rsatish”ga aniq manzilga yo’naltirilgan xizmat sifatida qaraydi.

Qayd qilingan olimlarning ilmiy ishlarida xizmatlar sohasi ijtimoiy-iqtisodiy va nazariy jihatdan o’rganilgan, ammo xizmatlar ko’rsatishning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarning statistik tahlilining yetarlicha amalga oshirilmaganligi maqolaning maqsadi qilib belgilangan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez hamda mutlaq, nisbiy va o’rtacha miqdorlardan foydalanilib, statistik ko’rsatkichlar aniqlangan. Maqolada xizmatlar sohasining tutgan o’rnini statistik baholashda dinamika qatorlarining statistik tahlili amalga oshirilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Xizmatlar insonning qimmatli vaqtini va ortiqcha sarflaydigan xarajatlarini tejab, mehnatning ijodiy mazmunini boyitish asosida aholining hayotiy manfaatlarini ro’yobga chiqaradi.

Bugungi kunda mamlakatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri xizmatlar sohasi samaradorligini oshirish hisoblanadi. Shunga ko’ra, mintaqalarni kompleks rivojlantirish bo’yicha ishlab chiqilgan Dasturlar bajarilishiga qat’iy yondashishda xizmatlar sohasi rivojlanishining SWOT tahlilini ko’rsatish joizdir.

1-jadval

Mintaqalarda xizmatlar sohasi rivojlanishining SWOT tahlili⁹⁰

| Kuchli tomonlari | Kuchsiz tomonlari |
|---|--|
| YaIM va YaHMda xizmatlar ulushining o’sishini yuz berishi | Hududda zamonaviy xizmat turlarini rivojlantirish bo’yicha kadrlar etishmasligi |
| Davlat dasturlari asosida sohani rivojlantirish | Hududda xizmatlarni eksport qilishda infratuzilmalar etishmasligi |
| Xizmatlarni eksport qilish bo’yicha shartnomalar tuzishda tezkor axborotlar tizimining mavjudligi | |
| Imkoniyatlari | Xavf-xatar yoki tahdidlari |
| Informasion va ta’lim xizmatlarini yanada takomillashtirish imkoniyati | Ichki va tashqi xizmatlar bozori ishtirokchilarining daromadlari pasayishi mumkinligi |
| Turistik infratuzilmalar mavjudligi va turizm xizmatlarini rivojlantirish | Xizmatlar sohasiga nisbatan boshqa tarmoq (sanoat, agrar)lar rivojlanib, ularga kapital qo’yilmalarning oqib ketishi |
| Mintaqaviy bozorlarga chiqish imkoniyati | |

⁹⁰ Mualliflar ishlanmasi.

Xizmat ko'rsatish sohasida sifat ko'rsatkichlari qat'iy ravishda oshib, unga bo'lgan talabning o'sib borishi sog'liqni saqlash, savdo, umumiy ovqatlanish xizmatlari yanada rivojlanishiga, shuningdek, ilgari mavjud bo'lmagan yuqori texnologiyali xizmatlar shakllanishiga va yuzaga chiqishiga sabab bo'ldi. Yuqori sifatli turli-tuman xizmatlar mavjudligi aholining sog'ligiga va insonlar kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ishchilarning ish unumini, iste'mol xarajatlarini oshiradi, bo'sh vaqt ko'payishiga va aholining dam olishiga imkoniyat beradi. Inson faoliyatida juda qulay, xo'jalik ishlab chiqarish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan yangi xizmat ko'rsatish tarmog'i, ya'ni bugungi kunda zudlikda ma'lumotlar bilan ta'min etuvchi Internet, mobil (uyali) telefonlar va boshqa fan-texnika yutuqlarini qo'llaydigan xizmat turlari rivojlanib bormoqda. Mazkur xizmat turlarining rivojlanishi mamlakatimizning nafaqat iqtisodiy qudrati yuksalishiga, uning intellektual salohiyati oshishiga ham xizmat qiladi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi aholi soni nisbatan kam bo'lgan Navoiy va Buxoro viloyatlarida aholi zich joylashgan viloyatlar: Qashqadaryo, Namangan va Andijon viloyatlariga qaraganda yuqoridir. Tahlillar shundan dalolat bermoqdaki, sanoati rivojlangan hududlar Navoiy va Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahrida xizmatlar sohasining aholi jon boshiga o'rtacha ko'rsatkichlari Xorazm, Namangan va Surxondaryo viloyatlariga nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatmoqda (2-jadval).

2-jadval

Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi va o'sish sur'ati⁹¹

| Hududlar nomi | 2022 yil | | 2023 yil | |
|---------------------------------|------------------|-------------------|------------------|-------------------|
| | hajmi, ming so'm | o'sish sur'ati, % | hajmi, ming so'm | o'sish sur'ati, % |
| O'zbekiston Respublikasi | 10 292,0 | 113,9 | 12 915,6 | 111,3 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 5 399,3 | 114,4 | 6 472,6 | 109,3 |
| Andijon | 5 414,7 | 110,6 | 6 489,0 | 109,0 |
| Buxoro | 7 951,2 | 113,9 | 9 543,6 | 109,2 |
| Jizzax | 5 568,7 | 113,3 | 6 958,3 | 110,4 |
| Qashqadaryo | 4 634,6 | 111,4 | 5 542,6 | 108,6 |
| Navoiy | 8 924,3 | 110,7 | 10 813,5 | 110,3 |
| Namangan | 4 956,8 | 113,1 | 5 878,7 | 108,7 |
| Samarqand | 5 633,1 | 112,3 | 6 963,5 | 111,2 |
| Surxondaryo | 4 626,7 | 111,3 | 5 452,1 | 107,9 |
| Sirdaryo | 5 654,4 | 108,5 | 6 737,0 | 108,7 |
| Toshkent | 8 737,2 | 110,0 | 10 565,3 | 108,8 |
| Farg'ona | 5 622,5 | 112,4 | 6 616,9 | 108,2 |
| Xorazm | 5 399,2 | 113,2 | 6 710,9 | 112,5 |
| Toshkent sh. | 49 678,1 | 117,4 | 64 439,3 | 115,2 |

Keyingi yillarda yirik koxonalar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmining o'sishi kichik tadbirkorlik sub'ektlari ulushining pasayishi tufayli yuz bergan bo'lsada, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik sektori iqtisodiyotning barqaror o'sishiga, yangi ish o'rinlarini yaratishga, daromadlarni oshirishga va aholi farovonligini ta'minlashga yordam beradi.

2023 yilning yanvar-dekabr oylarida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning eng katta hajmi Toshkent shahrida 73930,7 mlrd. so'mni, eng kichik hajmi esa Sirdaryo viloyatida 3111,2 mlrd. so'mni tashkil qilgan.

Postindustrial transformasiya xizmatlar sohasini dunyoning barcha rivojlangan va bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarda YaIM hajmi bo'yicha etakchiga aylantirdi. Masalan, Rossiya va Qozog'istonda xizmatlar sohasining YaIMdagi ulushi 53 % dan ortiqni tashkil etgan

⁹¹ Statistika agentligi ma'lumotlari asosida hisoblangan

bo'lsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 2023 yilning dastlabki yakuniga ko'ra 41,0 % ni tashkil etgan.

XXI asrda xizmatlar diversifikatsiyasi dunyo bo'ylab keng tus olmoqda. Korxonalar talay xizmatlar to'plamini taklif etish orqali o'zlarining raqobatbardoshligini oshirishga yoki xizmatlarni diversifikatsiyalash yo'li bilan ehtimoli bor xatarlarni susaytirishga erishmoqdalar.

Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan sub'ektlar soni 2024 yil 1 yanvar holatiga 70,7 foizni, ya'ni 343059 birlikni tashkil etgani holda, 2020 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 1,3 martadan ziyodga teng bo'lgan. Ular tomonidan 2023 yilda yaratilgan xizmatlar hajmi joriy baholarda 470 286,5 mlrd. so'mni, aholi jon boshiga esa 12915,6 ming so'mni, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi 47,7 foizga teng bo'lib, 2018 yilga nisbatan xizmatlar hajmi taqqoslama baholarda 1,8 martada ziyodga ($376055,2:204133,2=1,842$) oshganligini ko'rishimiz mumkin (3-jadval).


3-jadval

O'zbekistonda xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi⁹²

| Yillar | Ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmi, mlrd. so'm | | o'sish sur'ati, % | Kichik tadbirkorlik xizmatlari hajmi, mlrd.so'm | | o'sish sur'ati, % | Jami xizmatlar hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi, % |
|--------|---|-------------------|-------------------|---|-------------------|-------------------|--|
| | joriy bahoda | 2021-yil bahosida | | joriy bahoda | 2021-yil bahosida | | |
| 2018 | 150889,8 | 204133,2 | 108,9 | 84398,0 | 114114,9 | 104,4 | 55,9 |
| 2019 | 193697,8 | 231050,2 | 113,2 | 103106,5 | 122901,7 | 107,7 | 53,2 |
| 2020 | 219978,5 | 237981,7 | 103,0 | 114052,7 | 123270,4 | 100,3 | 51,8 |
| 2021 | 284388,1 | 284388,1 | 119,5 | 147061,6 | 147061,6 | 119,3 | 51,7 |
| 2022 | 366891,0 | 330743,4 | 116,3 | 181245,0 | 163385,4 | 111,1 | 49,4 |
| 2023 | 470286,5 | 376055,2 | 113,7 | 224443,7 | 179397,2 | 109,8 | 47,7 |

2018-2023 yillar mobaynida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi taqqoslama baholarda qariyb 1,7 martaga (1,842:1,105) oshgan.

Bugungi kunda xizmatlar sohasi zamonaviy milliy iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biridir.




1-rasm. 2023 yilda ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida turlari bo'yicha xizmatlarning hissasi, % da⁹³

⁹² Statistika agentligi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

⁹³ Statistika agentligi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

Ushbu tarmoq an'anaviy faoliyat bilan cheklanib qolmaydi, u jamiyat hayotida o'z ishtirokini doimiy ravishda kengaytirib boradi, ijtimoiy ishlab chiqarishga integrasiyalashgan, shuningdek, iqtisodiyotning deyarli barcha sohalari bilan o'ziga xos aloqalar orqali bog'langan. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining qo'shimcha o'sish sur'ati 2023 yilda 13,7 foizga teng bo'lib, unga moliyaviy xizmatlar 4,5 foiz bandni, transport xizmatlariniki 1,8 foiz bandni, savdo xizmatlariniki 2,5 foiz bandni, aloqa va axborotlashtirish xizmatlariniki 1,6 foiz bandni, ta'lim xizmatlariniki 1,0 foiz bandni, boshqa xizmatlarniki 1,8 foiz bandni, shuningdek yashash va ovqatlanish xizmatlariniki 0,5 foiz bandni tashkil etgan.

Xizmatlar hajmning oshishi bir qator omillar ta'siri bilan, jumladan, bozorda yangi turdagi xizmatlar, kredit kartalari orqali to'lovlar, Internet-savdo, yangi savdo-sotiq markazlari, ovqatlanish korxonalari, mehmonxonalar ochish, ta'lim xizmatlarini kengaytirish, dam olish sanoati xizmatlari paydo bo'lishi bilan izohlanadi.



2-rasm. Xizmatlar sohasida yaratilgan qo'shilgan qiymatning YalMdagi ulushi⁹⁴, % da

Mamlakatimizda xizmatlar sohasining rivojlanish holatini ifodalovchi eng muhim agregat ko'rsatkich, sohada yaratilgan qo'shilgan qiymat hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, 2022 yilda YalMning qo'shimcha o'sish sur'ati 5,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, xizmatlar sohasining ta'sir darajasi boshqa tarmoqlarga qaraganda eng yuqori bo'lib, 57,8 foizi tashkil etgan.

Hududlar o'rtasida xizmatlar hajmining eng yuqori o'sish sur'atlari 2023 yilda Toshkent shahri (118,7%) hamda Xorazm (114,6%), Samarqand (113,7%) va Jizzax viloyatlarga to'g'ri kelgan bo'lsa, xizmatlar sohasini rivojlantirishda eng katta ulushni Toshkent shahri (41,1%) hamda Toshkent (6,8%), Samarqand (6,2%) va Farg'ona (5,7 %) viloyatlari tashkil etmoqda.

Keyingi yillarda aloqa va axborotlashtirish kabi yuqori texnologiyalarga asoslangan xizmat turlarining rivojlanayotganligi inson faoliyatida juda qulay bo'lib, ishlab chiqarish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa nafaqat mamlakatning iqtisodiy qudrati yuksalishiga, balki uning intellektual salohiyati oshishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikasiya xizmatlari (kabel va mobil aloqa xizmatlari, Internet, sun'iy yo'ldosh aloqasi xizmatlari hamda boshqalar) eng katta ulushga ega. Transport xizmatlarining asosiy qismi yuk va yo'lovchilar tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi. Bu transportning tezkorligi va havo hamda temir yo'llar bilan solishtirganda xizmatlar narxining nisbatan arzonligi bilan izohlanadi.

⁹⁴ Statistika agentligi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

4-jadval

Iqtisodiy faoliyatning asosiy turlari bo'yicha xizmatlar tarkibidagi siljishlar⁹⁵

| Xizmat turlari | 2010 | 2012 | 2014 | 2016 | 2018 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 |
|---|-------------|-------------|-------------|-----------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|
| Xizmatlar – jami, trln.so'm | 27,1 | 44,4 | 68,0 | 97 | 150,9 | 220,0 | 284,2 | 357,5 | 470,3 |
| shu jumladan, foizda | | | | | | | | | |
| axborot va aloqa sohasidagi xizmatlari | 7,7 | 7,3 | 6,7 | 6,5 | 6,8 | 6,3 | 6,2 | 6,4 | 6,9 |
| moliya xizmatlari | 9,7 | 9,5 | 9,9 | 10,2 | 14,1 | 20,8 | 21,0 | 22,5 | 22,6 |
| transport xizmatlari | 38,8 | 37,2 | 35 | 31,5 | 29,3 | 24,4 | 23,7 | 22,7 | 23,1 |
| yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 1,1 | 1,0 | 1,1 | 3,1 | 3,1 | 2,5 | 2,9 | 3,2 | 3,9 |
| savdo xizmatlari | 24,4 | 26,0 | 27,9 | 28,2 | 26,3 | 26,2 | 25,5 | 24,8 | 23,5 |
| ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 3 | 3,2 | 3,3 | 3,5 | 3,3 | 2,7 | 2,8 | 2,7 | 2,6 |
| ta'lim sohasidagi xizmatlar | 2,8 | 3,1 | 3,2 | 3,4 | 3,6 | 3,9 | 4,2 | 4,3 | 4,3 |
| sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 1,0 | 1,1 | 1,3 | 1,5 | 1,5 | 1,5 | 1,8 | 1,8 | 1,8 |
| ijara va lizing bo'yicha xizmatlar | 2,0 | 2,0 | 2,2 | 2,3 | 2,2 | 1,9 | 1,9 | 1,8 | 1,6 |
| kompyuterlar, shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 2,3 | 2,1 | 2,0 | 2,3 | 1,7 | 1,5 | 1,6 | 1,6 | 1,5 |
| shaxsiy xizmatlar | 2,8 | 2,8 | 3,0 | 3,0 | 2,5 | 2,3 | 2,4 | 2,4 | 2,3 |
| me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 1,1 | 1,2 | 1,1 | 1,2 | 2,0 | 2,2 | 2,2 | 2,1 | 1,7 |
| boshqa xizmatlar | 3,3 | 3,5 | 3,4 | 3,3 | 3,7 | 3,8 | 3,6 | 3,7 | 4,2 |

Iqtisodiy o'sishni yuksaltiruvchi, harakatga boshlovchi kuchga aylangan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishi barcha sohalarning iqtisodiy jarayonlarini sezirlari darajada o'zgartirib, yangi bosqichga ko'tarmoqda. Shuningdek, axborot texnologiyalarining rivoji — insonning aqliy mehnati, ilm va tafakkurining mevasi bo'lgan axborot hamda mahsulotlarga asoslangan yangi turdagi iqtisodiyotning tashkil topishi uchun ham zamin yaratmoqda.

Mamlakatimizda AKT xizmatlari sektorida 2023 yilda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 30563,5 mlrd. so'mni, shundan 1248,5 mlrd. so'mlik xizmatlar dasturiy ta'minot mahsulotlariga doir xizmatlar ulushiga to'g'ri kelgan. Hozirda (2023y) AKT sohasining O'zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi ulushi qariyb 3,0 foizni tashkil qilmoqda.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasini yanada takomillashtirish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- xizmatlarning yangi zamonaviy turlarini rivojlantirishga keng e'tibor qaratish, xizmatlar turlarini yanada kengaytirish;
- ba'zi xizmat turlarining hisobga olinishini takomillashtirish, bu yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmatlar sohasining ulushi oshishiga olib keladi;
- xizmatlar sohasi bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlashga e'tiborni kuchaytirish;
- xizmatlar sohasida yangi ish o'rinlarni yaratishni jadallashtirish;
- xizmatlar sohasiga yangi innovatsion texnologiyalarni keng jalb etish;

⁹⁵ Statistika agentligi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

–hozirgi kundagi zamonaviy xizmat turlari hisoblanadigan aloqa va axborotlashtirish, kompyuterda dasturlash xizmatlarining jami xizmatlar tarkibidagi ulushini oshirishga e'tibor qaratish va boshqalar.

Umuman olganda, xizmatlar xilma-xildir: aholiga chakana savdo xizmati ko'rsatish, avtomobillarni, maishiy texnikalarni ta'mirlash, yo'lovchilarni va yuklarni tashish, ta'lim va maslahat berish, maishiy xizmatlar, tibbiyot xizmatlari, pullarni saqlash, qimmatli kog'ozlar va ko'chmas mulk bilan operasiyalar, sug'urta va boshqa faoliyat turlari.

Bozor munosabatlari jadallashishi tufayli jamiyatda yangi xizmatlar turlari paydo bo'lib, rivojlanmoqda. Ularga quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

– yangi turdagi ishbilarmonlik (kasbiy) xizmatlari – ko'chmas mulk bilan savdo qilish, vaqtinchalik erkin pullarni joylashtirish, axborot, marketing va reklama xizmatlari, buxgalteriya balansi va hisobotlarni tuzish, elektron kotiba;

– bolalarni tarbiyalash va o'qitish bo'yicha xizmatlar – tarbiyachilar, xususiy bog'chalar va maktablar;

– hayvonlarni parvarishlash bo'yicha xizmatlar – ularni davolash, boqish, sayr qildirish va vaqtincha qarab turish;

– jamiyatda ehtiyoj mavjud bo'lgan boshqa turdagi xizmatlar.

Ayni paytda xizmat ko'rsatish sohasining o'sish sur'atlari, yangi paydo bo'lgan xizmatlar turlari soni, bozor hamda iste'molchilar ehtiyojlariga moslashishi, avvalo, aholi turmush farovonligini har qachongidan yaxshilashda qo'l kelayapti. Ikkinchidan, jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlar O'zbekiston iqtisodiyotining boshqa jabhalari qatori xizmatlar ko'rsatish sohasini ham davr talablariga moslashtirishni taqozo etmoqda. Shu bois yurtimizda bu masalaga ustuvor vazifalardan biri sifatida jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining asosiy vazifalari va yo'nalishlarini amalga oshirish jarayonida 2010-2023 yillarda bozor xizmatlari hajmi taqqoslama baholarda 5,1 marta oshdi. Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi mazkur davrda 4 martaga o'sdi va joriy baholarda 12,9 mln.so'mni tashkil etdi.

Xizmat ko'rsatish tasnifi xususida fikr yuritilganda, shuni alohida ta'kidlash joizki, xizmatlar sohasining rivojlanganlik darajasiga ko'ra turli mamlakat va mintaqalarda xizmatlar va tasniflagichlar son hamda tarkib jihatidan farq qiladi. Agar ushbu nazariy xulosadan kelib chiqadigan bo'lsak, xizmat sifatiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: xizmat sifati deganda jamiyatning (odamlar, korxonalar va davlatning) xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini to'laligicha yuqori saviyada qondirishga qaratilgan va ularga kam xarajatlar bilan tegishli darajada moddiy va ma'naviy jihatdan naf keltiradigan nuqsonsiz xizmatlar majmuasi tushuniladi.

Ma'lumki, xizmatlar sohasi rivojlanishida kichik biznesning hissasi ortishi servis va xizmatlar sohasi tarmoqlari rivojida muhim omillardan biriga aylandi. Bu sohada kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun kreditlash va imtiyozli soliqqa tortish biznesni rivojlantirish va xizmatlarni kengaytirish uchun rag'bat bo'ldi.

Respublikamiz hududlarini rivojlantirish maqsadida moliyaviy xizmatlar ko'rsatishni yanada kengaytirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- jahon tajribasiga asosan tadbirkorlarga ko'char mulk garovi asosida kreditlashni yo'lga qo'yish kerak. Bu hududlarda kreditlash hajmini oshiradi, aktivlarni xarakatga keldiradi. Chunki respublikamizda mavjud ko'char mulklarning asosiy qismi garovga qo'yilgan;

- hududlarda ularning xususiyatini hisobga olgan holda yangi moliya institutlarini, xususan, mikrokredit tashkilotlari, qishloq kredit kooperativlari, jamg'arma qurilish kassalarini ochishni yo'lga qo'yish lozim;

- respublikamiz hududlarida, ayniqsa, mehnat resurslari ortiqcha va aholi daromadlari darajasi past bo'lgan qishloq hududlarida mikromoliyalashtirish tashkilotlarini ochishni rag'batlantirish, xususan, soliq imtiyozlari berish, binolar ajratish, kredit liniyalari ochish zarur. Ular esa, o'z navbatida, garovsiz kreditlash mexanizmini keng qo'llashi maqsadga muvofiqdir,

chunki aholi tadbirkorlik bilan shug'ullanishi uchun kredit olishiga ta'minot mavjud emasligi to'sqinlik qilmoqda;

- tadbirkorlik bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan aholi bank va boshqa moliya institutlarining mikrokreditlaridan foydalanishda jamg'arilib boriladigan pensiya tizimidagi mablag'laridan kafolat sifatida foydalanishga ruxsat berish lozim. Bu ko'pchilik aholiga tadbirkorlikni boshlashlari uchun kredit, ayniqsa, mikrokredit olishda ta'minot masalasini ijobiy hal qilish imkonini beradi.

"Xizmatlar" tushunchasi keng qamrovli tushunchalarni o'z ichiga oladi. Umuman olganda, xizmat deganda, yaqqol moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan turlicha faoliyat turlari tushuniladi.

Xizmatlar va servis sohasini rivojlantirishning afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- insonning kamol topishi, rivojlanishi va barkamolligini ta'minlashni rag'batlantiruvchi soha;
- iste'mol bozorini zamonaviy xizmat turlari bilan to'ldiradi va hajmini oshiradi;
- iqtisodiyotni rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi;
- katta mablag' talab etilmaydi, tashkil etish uchun mahalliy moddiy resurslardan keng foydalanish imkoniyatlari bor;
- aholining ehtiyoji uzluksiz o'sib boradi;
- iqtisodiyotda band bo'lgan aholi soni ortadi;
- aholi daromadlarini oshiradi;
- iste'mol bozorini zamonaviy, sifatli xizmatlar turlari bilan to'ldiradi;
- ayniqsa, qishloq joylaridagi aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar va servis soha tarmoqlari ko'payib, xizmat ko'rsatish darajasini o'stiradi;
- iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Xulosa va takliflar.

Fikrimizcha, xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirish ayniqsa, qishloq joylarida ko'rsatilayotgan xizmatlarning turini kengaytirish hamda sifatini yaxshilash uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

• qishloq aholi punktlarida xizmat ko'rsatish korxonalarini rivojlantirish, birinchi navbatda kommunal-maishiy, uy-joylarni ta'mirlash va qurish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash;

• xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlarning faolligini kuchaytirish uchun shart-sharoitlar yaratish, oilaviy tadbirkorlik sub'ektlariga kasb-hunar bilim yurtlari va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari orasidan yoshlarni jalb etish;

• aholi o'rtasida xizmatlarning talab yuqori bo'lgan yangi, istiqbolli konsalting, bank, moliya, sug'urta, lizing va baholash kabi turlarini jadal rivojlantirish;

• har bir hududning xususiyatlaridan kelib chiqib, xizmat ko'rsatish sohalarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hissasining ulushi oshib borishga erishish maqsadida shart-sharoitlar yaratish;

• xizmat ko'rsatish sohasini keng rivojlantirish maqsadida mazkur sohada ishlaydigan kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratish;

• ayollarning ish bilan bandligi xizmat ko'rsatish sohalarida o'sib borayotganligini hisobga olib, ularning kasbiy faoliyatlarini oilaviy yumushlar, farzandlar tarbiyasi bilan birga uyg'un tarzda yo'naltirishlari uchun bandlikning nostandart turlaridan foydalanish.

- muhandislik-kommunikasiya, yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish, tarmoqlarda zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga xizmatlar sohasini, tarkibiy o'zgartirishlarni jadal rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- raqobat muhitini shakllantirish, kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini rivojlantirishga ko'maklashish;

- turli innovasiya xizmatlarini, yangi aloqa vositalarini kengaytirish;
 - eng yangi elektron, to'lov texnologiyalarini joriy etgan holda moliya xizmatlarini rivojlantirish;
 - sog'liqni saqlash sohasida yuqori texnologiyali xizmatlarni yanada rivojlantirish;
 - xizmat ko'rsatish jarayonida yangi bilimlarga (ilm-fanga) doimo talab yuqori bo'lgan, shu sababli sohani rivojlantirish uchun inson kapitalini oshirish, aholi turmush darajasini yaxshilash maqsadida so'nggi texnologiyalardan foydalanish;
 - xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va bu sohada davlat siyosatini olib borish imkonini beruvchi ishonchli statistik ma'lumotlarga ehtiyoj bo'lgani tufayli xizmatlar sohasini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini yaratish;
- Yuqorida taklif etilgan fikr va mulohazalarni amaliyotga tatbiq etilishi xizmatlar sohasini takomillashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/ Лумепамыра/ Reference:

Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. www.lex.uz.

Farmon (2023) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. www.lex.uz.

Muxammedov M.M. va boshqalar (2016) Xizmat ko'rsatish va turizmning nazariy asoslari. Monografiya.- Samarqand, SamISI.

Ochilov I.S. (2010) Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida samaradorlikni oshirish yo'llari. Iqtisodiyot fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. -Samarqand: SamISI, -26-b.

Qaror (2021) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 11 maydagi PQ-5113-son "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.// "Xalq so'zi", 12 may.

Адам Смит (2016) Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: "Эксмо".

Альфред Маршалл (1993) Принципы экономической науки. – М.: «Прогресс».

Жон Батист Сей, Фредерик Бастиа (2000) Трактат по политической экономии – М.: "Дело".

Жон Мейнард Кейнс (2012) Общая теория занятости, процента и денег. –М.: «Гелиос АРВ».